

YASHIL IQTISODIYOTNING O'ZBEKISTONDAGI BUGUNGI HOLATI VA ISTIQBOLLARI

Mudarisova Rayxon Xodjayevna
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti “Iqtisod va yashil resurslar” kafedrasi dotsenti, meditsina fanlari nomzodi
ORCID ID: 0009-0007-1816-3587

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning bugungi holati, asosiy yo‘nalishlari va istiqbollari tahlil qilingan. Mamlakatda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, energiya samaradorligini oshirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash hamda ekologik barqarorlikni ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar yoritilgan. Shuningdek, yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonidagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.
Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, qayta tiklanuvchi energiya, ekologik barqarorlik, energiya samaradorligi, tabiiy resurslar, ekologik innovatsiyalar, chiqindilarni qayta ishlash.
Abstract: This article analyzes the current state, key areas, and development prospects of the green economy in Uzbekistan. It examines the reforms being implemented in the country to promote the use of renewable energy sources, improve energy efficiency, ensure the rational use of natural resources, enhance waste recycling, and strengthen environmental sustainability. The article also identifies existing challenges in the transition to a green economy and develops recommendations for addressing them.
Keywords: green economy, sustainable development, renewable energy, environmental sustainability, energy efficiency, natural resources, environmental innovations, waste recycling.
Абстрактный: В статье анализируются современное состояние, основные направления и перспективы развития зелёной экономики в Узбекистане. Рассматриваются проводимые в стране реформы в области использования возобновляемых источников энергии, повышения энергоэффективности, рационального использования природных ресурсов, переработки отходов и обеспечения экологической устойчивости. Также выявлены существующие проблемы перехода к зелёной экономике и разработаны предложения по их преодолению.
Ключевые слова: зелёная экономика, устойчивое развитие, возобновляемая энергия, экологическая устойчивость, энергоэффективность, природные ресурсы, экологические инновации, переработка отходов.

Kirish (Введение/Introduction).

Bugungi kunda global iqlim o‘zgarishi, tabiiy resurslarning cheklanganligi, atrof-muhitning ifloslanishi va energiyaga bo‘lgan talabning ortib borishi mamlakatlar oldiga iqtisodiy rivojlanishning yangi modelini shakllantirish vazifasini qo‘ymoqda. Bunday sharoitda yashil iqtisodiyot barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik xavfsizlikni mustahkamlashning muhim yo‘nalishi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

O‘zbekiston uchun yashil iqtisodiyotga o‘tish alohida ahamiyatga ega. Mamlakatda suv resurslarining cheklanganligi, energiya iste’molining ortishi, atmosfera havosining ifloslanishi va cho‘llanish jarayonlari iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, quyosh va shamol energetikasi salohiyati, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish imkoniyatlari hamda energiya samaradorligini oshirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar yashil iqtisodiyotga o‘tish uchun muhim shart-sharoit yaratmoqda.

O‘zbekistonda yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, ishlab chiqarishda resurs tejamkor texnologiyalarni qo‘llash va ekologik muammolarni kamaytirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Mazkur maqolaning maqsadi O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotning bugungi holatini tahlil qilish, uning rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash hamda istiqbolli yo‘nalishlar bo‘yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Обзор литературы/Literature review).

Yashil iqtisodiyot masalasi xalqaro ilmiy adabiyotlarda iqtisodiy o‘sish va ekologik barqarorlikni o‘zaro uyg‘unlashtirish nuqtayi nazaridan o‘rganiladi. O‘zbekistonning milliy strategik hujjatlari, xalqaro tashkilotlar hisobotlari va ilmiy tadqiqotlar ushbu yo‘nalishda muhim nazariy hamda amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son qarori bilan tasdiqlangan 2019–2030-yillarda yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasida energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan [1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-son qarorida yashil iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha islohotlar samaradorligini oshirish, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish va ekologik barqarorlikni ta’minlash masalalariga e’tibor qaratilgan [2].

Jahon bankining O‘zbekiston bo‘yicha Country Climate and Development Report hisobotida mamlakat iqtisodiyotining energiya va resurs sig‘imi yuqoriligi, iqlim o‘zgarishi oqibatida suv tanqisligi, qurg‘oqchilik va yuqori harorat xavflari kuchayishi mumkinligi qayd etilgan. Hisobotda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini kengaytirish, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish va iqlimga mos qishloq xo‘jaligini rivojlantirish muhim yo‘nalishlar sifatida ko‘rsatilgan [3].

Jahon bankining 2024-yilda e’lon qilingan Uzbekistan – General Water Security Assessment tadqiqotida mamlakatning suv xavfsizligi, suv resurslarini boshqarish va iqlim o‘zgarishiga moslashish imkoniyatlari tahlil qilingan. Unda suv resurslarini samarali taqsimlash, infratuzilmani modernizatsiya qilish va suvdan foydalanish samaradorligini oshirish zarurligi asoslangan [4].

O‘zbekistonning 2025-yilda taqdim etilgan Milliy miqyosda belgilangan hissasi (NDC 3.0) hujjatida 2035-yilga qadar yalpi ichki mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan issiqxona gazlari chiqindilari intensivligini 2010-yil darajasiga nisbatan 50 foizga kamaytirish maqsadi belgilangan [5].

OECDning Accelerating Sustainable Infrastructure Investments tadqiqotida O‘zbekistonda infratuzilma loyihalarini rejalashtirishda iqlim va ekologik mezonlarni hisobga olish, yashil investitsiyalarni moliyalashtirish hamda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish masalalari yoritilgan [6].

Xalqaro energetika agentligi (IEA) materiallarida O‘zbekistonning yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish va tabiiy resurslarni tejash bilan bog‘liqligi qayd etilgan [7].

O‘zbekiston Respublikasi ekologiya sohasidagi vakolatli davlat organi ma’lumotlarida 2024-yilda mamlakatda 14,8 million tonna maishiy chiqindi hosil bo‘lgani, shundan 900,5 ming tonnadan ortig‘i qayta ishlangani keltirilgan. Bu holat chiqindilarni saralash, qayta ishlash va aylanma iqtisodiyot mexanizmlarini rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi [8].

O‘zbekistonning 2025-yilgi energetika sohasi natijalariga oid ma’lumotlarda quyosh va shamol elektr stansiyalari ishlab chiqarishi sezilarli oshgani, qayta tiklanuvchi energiya manbalari hisobidan tabiiy gaz tejalishi va zararli chiqindilar kamaygani qayd etilgan [9].

Umuman olganda, o‘rganilgan manbalar O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tishning asosiy yo‘nalishlari energetika, suv resurslari, sanoat, qishloq xo‘jaligi va chiqindilarni boshqarish bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, yashil iqtisodiyot rivojlanishini yagona iqtisodiy-ekologik ko‘rsatkichlar tizimi asosida baholash, hududlar kesimida tahlil qilish va investitsiyalarning natijadorligini aniqlash masalalari yanada chuqur tadqiq etilishi lozim.

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Методы /Methods).

Mazkur tadqiqotda O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotning bugungi holati va istiqbollarini o‘rganishda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, statistik tahlil, guruhlash va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida mamlakatning yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi, xalqaro tashkilotlar hisobotlari va rasmiy statistik ma’lumotlar o‘rganildi. Shuningdek, qayta tiklanuvchi energiya ishlab chiqarish, energiya samaradorligi, suv resurslaridan foydalanish va chiqindilarni qayta ishlash ko‘rsatkichlari tahlil qilindi. Olingan natijalar asosida yashil iqtisodiyot rivojlanishining mavjud muammolari va istiqbolli yo‘nalishlari aniqlandi.

Tahlil va natijalarlar (Анализ и результаты/Analysis and rezults).

O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayoni so‘nggi yillarda energetika, sanoat, qishloq xo‘jaligi va ekologiya sohalaridagi islohotlar orqali jadallashmoqda. Ushbu jarayonda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, energiya samaradorligini oshirish, suv resurslarini tejash va chiqindilarni qayta ishlash asosiy yo‘nalishlar hisoblanadi.

1. Yashil energetikaning rivojlanish holati

O‘zbekiston quyosh va shamol energetikasini rivojlantirish uchun katta tabiiy salohiyatga ega. Elektr energiyasiga talabning ortib borishi sharoitida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini kengaytirish energiya xavfsizligini ta’minlash va tabiiy gazga bo‘lgan ehtiyojni kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

2025-yil yakunlariga oid ma’lumotlarga ko‘ra, mamlakatda jami 86,7 mlrd kVt·soat elektr energiyasi ishlab chiqarilgan. Quyosh va shamol elektr stansiyalarida ishlab chiqarish 10,5 mlrd kVt·soatdan oshgan, gidroenergetika bilan birgalikdagi yashil elektr energiyasi ishlab chiqarish esa 16,8 mlrd kVt·soatni tashkil etgan [9].

Bu ko‘rsatkichlar qayta tiklanuvchi energiya manbalarining energetika balansidagi ahamiyati ortib borayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, energiya ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish bilan bir qatorda elektr tarmoqlarini modernizatsiya qilish, energiyani saqlash tizimlarini rivojlantirish va iste’mol samaradorligini oshirish ham dolzarb hisoblanadi.

1-jadval.

O‘zbekistonda yashil energetika rivojlanishining ayrim ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar	2025-yil holati
Jami elektr energiyasi ishlab chiqarish	86,7 mlrd kVt·soat
Quyosh va shamol elektr stansiyalari ishlab chiqarishi	10,5 mlrd kVt·soatdan ortiq
Gidroenergetika bilan birgalikdagi yashil elektr energiyasi	16,8 mlrd kVt·soat
Ishga tushirilgan yangi energetika obyektlari	42 ta
Yangi ishga tushirilgan obyektlarning umumiy quvvati	4 647 MVt

Manba: O‘zbekiston energetika sohasi bo‘yicha 2025-yil yakuniy ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi [9].

Yashil iqtisodiyotning strategik maqsadlari

O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish 2030-yilgacha mo‘ljallangan strategik maqsadlar asosida amalga oshirilmoqda. Xususan, qayta tiklanuvchi energiya quvvatlarini 25 000 MVtga yetkazish, energiya samaradorligini oshirish va issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish ustuvor vazifalar qatoriga kiradi [1; 5].

2025-yilda taqdim etilgan NDC 3.0 hujjatida 2035-yilga qadar YaIM birligiga to‘g‘ri keladigan issiqxona gazlari chiqindilari intensivligini 2010-yilga nisbatan 50 foizga kamaytirish maqsadi belgilangan. Bu iqtisodiy o‘sishni ekologik jihatdan samarali texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish zarurligini anglatadi.

2-jadval.

O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotning ayrim strategik ko‘rsatkichlari

Yo‘nalish	Belgilangan maqsad
Qayta tiklanuvchi energiya quvvatlari	2030-yilgacha 25 000 MVt
Issiqxona gazlari chiqindilari intensivligi	2035-yilgacha 2010-yilga nisbatan 50 foizga kamaytirish
Energiya samaradorligi	Iqtisodiyot tarmoqlarida ikki baravar oshirish
Uglerod neytralligiga erishish	2055-yilgacha uzoq muddatli maqsad

Manba: O‘zbekistonning yashil iqtisodiyot strategiyasi va NDC 3.0 hujjati asosida muallif tomonidan tuzildi [1; 5].

Suv resurslaridan samarali foydalanish

O‘zbekiston yashil iqtisodiyotining muhim yo‘nalishlaridan biri suv resurslarini tejash va ulardan oqilona foydalanish hisoblanadi. Ayniqsa, qishloq xo‘jaligida sug‘orish tizimlarining samaradorligini oshirish, tomchilatib va yomg‘irlatib sug‘orish texnologiyalarini kengaytirish, suv hisobini raqamlashtirish muhim ahamiyatga ega.

Jahon bankining suv xavfsizligi bo‘yicha tadqiqotida O‘zbekistonda suv resurslarini boshqarish, suv taqsimoti va infratuzilmani modernizatsiya qilish masalalari dolzarb ekani ta’kidlangan [4]. Suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish ekologik muammolarni kamaytirish bilan birga, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tannarxini pasaytirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga ham xizmat qiladi.

Chiqindilarni qayta ishlash va aylanma iqtisodiyot

Yashil iqtisodiyotning yana bir muhim yo‘nalishi chiqindilarni kamaytirish, saralash va qayta ishlash tizimini rivojlantirishdir. 2024-yilda O‘zbekistonda 14,8 mln tonna maishiy chiqindi hosil bo‘lgan va uning 900,5 ming tonnadan ortig‘i qayta ishlangan. Bu jami chiqindilarning taxminan 6,1 foiziga teng [8].

Mazkur ko‘rsatkich chiqindilarni qayta ishlash sohasida hali katta imkoniyatlar mavjudligini ko‘rsatadi. Chiqindilarni manbada saralash, qayta ishlash korxonalarini ko‘paytirish, ikkilamchi xomashyodan foydalanish va chiqindidan energiya ishlab chiqarish mexanizmlarini rivojlantirish zarur.

Yashil iqtisodiyot rivojlanishidagi muammolar va istiqbollar

O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonida ijobiy natijalar bilan birga ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, ekologik toza texnologiyalarni joriy etish uchun katta investitsiya talab etilishi, ayrim

hududlarda infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, suv va energiya resurslaridan foydalanish samaradorligining pastligi hamda malakali mutaxassislarga ehtiyoj shular jumlasidandir.

OECD va Jahon banki tadqiqotlarida yashil infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish, davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, xususiy investitsiyalarni jalb qilish va iqlim xavflarini iqtisodiy rejalashtirishga kiritish muhimligi qayd etilgan [3; 6].

Tahlillar asosida yashil iqtisodiyotning kelgusi rivojlanishi quyidagi yo‘nalishlarda yuqori imkoniyatlarga ega ekanligi aniqlandi:

- quyosh va shamol energetikasi loyihalarini kengaytirish;
- sanoat korxonalarida energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish;
- qishloq xo‘jaligida suv tejovchi va iqlimga moslashgan texnologiyalarni rivojlantirish;
- chiqindilarni qayta ishlash va aylanma iqtisodiyot tizimini shakllantirish;
- yashil moliyalashtirish va ekologik investitsiyalarni rag‘batlantirish;
- ekologik monitoring va raqamli nazorat tizimlarini takomillashtirish.

Olib borilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, yashil iqtisodiyotga o‘tish faqat ekologik vazifalarni bajarish vositasi emas, balki yangi investitsiyalarni jalb etish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy raqobatbardoshligini oshirish omili ham hisoblanadi.

Xulosa va takliflar (Выводы и предложения/Conclusion).

Tadqiqot natijalari O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayoni izchil rivojlanayotganini ko‘rsatadi. Xususan, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini kengaytirish, energiya samaradorligini oshirish, suv resurslaridan oqilona foydalanish va chiqindilarni qayta ishlash bo‘yicha muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, mavjud tabiiy resurslardan samarali foydalanish, ekologik muammolarni kamaytirish va yashil investitsiyalarni ko‘paytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini kengaytirish. Quyosh va shamol elektr stansiyalarini qurish bilan bir qatorda energiyani saqlash tizimlarini rivojlantirish va elektr tarmoqlarini modernizatsiya qilish lozim.
2. Sanoatda energiya samaradorligini oshirish. Yirik ishlab chiqarish korxonalarida energiya auditi o‘tkazish, zamonaviy tejamkor uskunalarni joriy etish va energiya sarfini raqamli monitoring qilish tizimini kengaytirish kerak.
3. Suv tejovchi texnologiyalarni rivojlantirish. Qishloq xo‘jaligida tomchilatib sug‘orish, yomg‘irlatib sug‘orish va suv resurslarini avtomatlashtirilgan boshqarish tizimlarini keng joriy etish maqsadga muvofiq.
4. Chiqindilarni qayta ishlash samaradorligini oshirish. Chiqindilarni saralash infratuzilmasini rivojlantirish, qayta ishlash korxonalarini moliyaviy rag‘batlantirish va ikkilamchi xomashyo bozorini kengaytirish zarur.
5. Yashil moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish. Yashil obligatsiyalar, imtiyozli kreditlar va davlat-xususiy sheriklik asosida ekologik loyihalarga investitsiyalarni jalb qilish lozim.
6. Hududiy yashil iqtisodiyot ko‘rsatkichlarini baholash. Har bir hudud bo‘yicha energiya samaradorligi, suv sarfi, chiqindilarni qayta ishlash va ekologik holat ko‘rsatkichlarini qamrab oluvchi monitoring tizimini shakllantirish kerak.
7. Yashil ta’lim va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish. Oliy ta’lim muassasalarida yashil iqtisodiyot, ekologik menejment va qayta tiklanuvchi energiya yo‘nalishlari bo‘yicha mutaxassislar tayyorlashni kuchaytirish zarur.

Umuman olganda, O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotning istiqbollari qayta tiklanuvchi energiya salohiyatidan foydalanish, resurs tejamkor ishlab chiqarishni rivojlantirish va ekologik investitsiyalarni kengaytirish bilan chambarchas bog‘liq. Ushbu yo‘nalishlarda izchil islohotlarni amalga oshirish mamlakatning barqaror iqtisodiy o‘sishini ta’minlash hamda kelajak avlodlar uchun sog‘lom ekologik muhitni saqlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/ References):

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-sonli “2019–2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori. – https://lex.uz/docs/4539506
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-sonli “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori. – https://lex.uz/docs/6303230
3. World Bank. Uzbekistan Country Climate and Development Report. – Washington, DC: World Bank, 2023. – https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan/publication/ccdr
4. World Bank. Uzbekistan – General Water Security Assessment. – Washington, DC: World Bank, 2024. – https://documents.worldbank.org/en/publication/documents-reports/documentdetail/099062424121035288
5. Republic of Uzbekistan. Updated Nationally Determined Contribution (NDC 3.0) under the Paris Agreement. – Tashkent, 2025. – https://unfccc.int/sites/default/files/2025-11/Uzbekistan%20Third%20NDC.pdf
6. OECD. Accelerating Sustainable Infrastructure Investments: Uzbekistan. – Paris: OECD Publishing, 2026. – https://www.oecd.org/en/publications/accelerating-sustainable-infrastructure-investments_031d486e-en.html
7. International Energy Agency (IEA). Strategy for the Transition to a Green Economy for the 2019–2030 Period: Uzbekistan. – 2019 (updated 2025). – https://www.iea.org/policies/11979-
8. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o‘zgarishi bo‘yicha vakolatli davlat organi. Waste Recycling in Uzbekistan: A Step Towards a Green Economy. – 2025. – https://gov.uz/en/eco/news/view/38417
9. Ministry of Energy of the Republic of Uzbekistan. Electricity Production Increased in Uzbekistan in 2025, and Solar and Wind Energy Production Doubled. – 2026. – https://energyforum.uz/en/news/electricity-production-increased-in-uzbekistan-in-2025-and-solar-and-wind-energy-production-doubled---ministry-of-energy